

YANGI O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR O‘RTASIDAGI JINOYATCHILIKNI KAMAYTIRISHDA HUQUQIY TA‘LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASINING AHAMIYATI

Suyundiqova Bahora O‘tkir qizi,

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Maxsus fakul’teti 1-bosqich 101-guruh talabasi

Annotatsiya: maqolada ayollar o‘rtasida so‘ngi paytlarda sodir etilayotgan jinoyatlar haqida to‘xtalib o‘tilgan. Tarixdan bizga ma‘lumki, firibgarlik, o‘g‘rilik, qotillik va boshqa jinoyatlar uchun jazo tayinlashdan maqsad, tarbiyalash va qayta jinoyat qilmaslik bo‘yicha o‘zini va atrofdagilarga o‘rnak bo‘lish maqsad qilingan. Bugungi kunga kelib esa ayollar o‘rtasida ham mana shunday jinoyatlar sodir etilayotgani har bir millatni tanazzulga yuz tutayotganligidan ogohlantirmoqda. Bu shunchaki jinoyat emas, ya‘ni bu bir oilaning kelajagi haqida ketayotgan masala hisoblanadi. Shu sababli ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida ayollar o‘rtasida sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olishning dolzarb jihatlari tahlil qilinadi hamda ayollar o‘rtasida jinoyatchilik profilaktikasini kuchaytirish, huquqiy madaniyatni oshirish hamda ta‘lim muassasalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ayollar, jinoyat, ta‘lim, huquqiy madaniyat, huquqbuzarlik profilaktikasi, fanlar, amaliyot, integratsiya, kriminologiya, xalq, millat, oila, jamiyat, kelajak.

ВАЖНОСТЬ ИНТЕГРАЦИИ ПРАВОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПРАКТИКИ В СНИЖЕНИИ ПРЕСТУПНОСТИ СРЕДИ ЖЕНЩИН В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: в статье рассказывается о преступлениях, совершаемых женщинами в последнее время. Из истории нам известно, что цель наказания за мошенничество, кражу, убийство и другие преступления состоит в том, чтобы быть примером для себя и окружающих в том, чтобы воспитывать и не совершать повторных преступлений. А то, что на сегодняшний день подобные преступления совершаются и среди женщин, предупреждает каждую нацию о том, что она находится в упадке. Это не просто преступление, то есть это вопрос будущего семьи. Поэтому в данной статье анализируются актуальные аспекты профилактики преступлений, совершаемых среди женщин в условиях нового Узбекистана, а также освещаются предложения и рекомендации по усилению профилактики преступности среди женщин, повышению правовой культуры и развитию сотрудничества образовательных учреждений и правоохранительных

органов.

Ключевые слова: женщины, преступность, образование, правовая культура, профилактика правонарушений, науки, практика, интеграция, криминология, люди, нация, семья, общество, будущее.

THE IMPORTANCE OF INTEGRATION OF LEGAL EDUCATION
AND PRACTICE IN REDUCING CRIME AMONG WOMEN
IN NEW UZBEKISTAN

Abstract: the article deals with crimes among women in recent times. Historically, it is known to us that the purpose of imposing penalties for fraud, theft, murder and other crimes is to set an example for oneself and those around you in order not to educate and re-demonize. To date, however, the fact that such crimes are also committed among women warns that every nation is in decline. It's not just a crime, that is, it's a matter of going about the future of one family. For this reason, this article will analyze the current aspects of the Prevention of crimes among women in the New Uzbekistan conditions and will highlight proposals and recommendations for strengthening crime prevention among women, enhancing legal culture and promoting cooperation of educational institutions and law enforcement agencies.

Keywords: women, crime, education, legal culture, crime prevention, science, practice, integration, criminology, people, nation, Family, Society, future.

So'nggi vaqtlarda dunyoda sodir etilayotgan jinoyatlarni tahlil qiladigan bo'lsak jinoyat sub'ektlari orasida ayollar ham kuzatilayotganligi har bir millat va xalqning chuqur qayg'uiga solib qo'yadi.

Qizlar va ayollar o'rtasida sodir bo'layotgan jinoyatlar soni ortib bormoqda. Hafta davomida tarqalgan yangiliklar ichida birortasi albatta shu haqida bo'ladi. Bolasini sotgan, tashlab ketgan qizlar, turmush o'rtog'ini, oila a'zolarini o'ldirishga jazm qilgan ayollarning soni kamayish o'rniga ortib bormoqda. Balki avvallari ham bunday mudhish voqealar ko'p bo'lgan bo'lishi mumkin. Biroq, bugun axborot tarqatish rivojlangani uchun ham suv tubiga cho'kib yotgan ba'zi og'riqli nuqtalar endi ko'rinish beryapti.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida erkak va ayollar teng huquqli ekanligi mustahkamlangan[1]. Bu norma inson huquq va erkinliklarini ta'minlash jihatidan nazarda tutilgan. Lekin majburiyat va burchlarni ba'zi jihatlarini va jinoyatlar sodir etish holatlarini keltirib chiqarishni nazarda tutmaydi.

Jinoyatchi degan tamg'ani olish oson. Lekin, uni yukini ko'tarish esa mushkuldir. Hayotimiz davomida jinoyatchi so'zini eshitsak, yoki ko'rsak albatta unga nisbatan adovat bilan qarashlar paydo bo'ladi. Endi tassavur qiling bu jinoyatchi bir ayol, qaysidir begunoh farzandning onasi yokida sevimli rafiqqa bo'lsachi unda nima deymiz?

Albatta ulug' ayollar nomiga dog' tushurib qing'ir-qiyshiq ishlarni qilib yurganlar yo'q emas.

Xalqaro statistik va sud amaliyotlaridagi vaziyatlardan kelib chiqadigan bo'lsak, ayollar o'rtasida firibgarlik, o'g'rilik, odam va giyohvand moddalari savdosi hamda foxishalik jinoyatlar turi juda keng tarqalgan. Bular umumiy jinoyatlar ulushining kam qismini egallasada, jinoyat-jinoyatdir va bu ijtimoiy oqibatlarini yuzaga keltiradi. Bora-bora bu muammolar kattalashaveradi.

2021 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, ishsiz ayollar o'rtasida jinoyatchilik 1,7 baravarga, 18-30 yoshdagi xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar esa 2 baravarga ko'paygan[3]. Shu sababli, ayollar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish, uning sabablarini chuqur o'rganish va samarali profilaktika choralarini ishlab chiqish zarur.

Mazkur holatda huquqiy fanlar, ta'lim tizimi hamda amaliyot o'rtasidagi integratsiya muhim rol o'ynaydi. Chunki, nazariy bilimlar va amaliy tajriba uyg'unlashganda jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va uning oldini olish imkoniyati yanada kengayadi.

Ayollar jinoyatchiligining kelib chiqish omillari haqida so'z ketganda aslida, jinoyatchilarni erkak yoki ayolga ajratishimiz xato. Erkak ham, ayol ham turli sabablar bilan jinoyatga qo'l uradi. Erkakda bor nafs ayolda ham bor. Ayol ham tezda boyib ketishni istaydi va bu istaklariga olib boruvchi osonroq yo'lni qidiradi. Natijada boshi berk ko'chaga kirib qoladi. Statistika tahlil qiladigan bo'lsak, so'nggi yillarda ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni ortgan. Ayollar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatlarning kelib chiqishi bulardan tashqari turli omillar sabab bo'lishi mumkin. Ushbu omillarni ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik guruhlariga ajratish mumkin.

2021-yilda O'zbekiston ishsiz ayollar va 18-30 yoshdagi xotin qizlar jinoyatchiligi o'rtacha 2 foizga ortgan. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yangi bosqichga ko'tarish va ayollarning jamiyatdagi o'rnini yanada yuksaltirish va mustahkamlash, shuningdek, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, oilaviy zo'ravonlikning oldini olish, gender tenglikni qaror toptirishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar yuzasidan videoselektor yig'ilishida ma'lum qildi[4].

Ijtimoiy omillar qatoriga oilaviy muammolar, ijtimoiy muhitning salbiy ta'siri hamda jamiyatdagi ayrim muammolar kiradi. Ba'zi hollarda ayollar yengil hayot yo'lini tanlagani uchun og'ir hayotiy sharoitlar yoki oilaviy ziddiyatlar sababli huquqbuzarlik sodir etishlari mumkin.

Iqtisodiy omillar boshqalariga nisbatan ancha katta rol o'ynaydi. Chunki ishsizlik, moddiy qiyinchiliklar va ijtimoiy himoyaning yetarli emasligi ayrim ayollarni noqonuniy harakatlarga undashi mumkin. Bu holat ko'pincha boquvchisini yo'qotganlar tomonidan sodir bo'ladi. Hozirda qamoqxonadagi ayollarning 22% ni

beva ayolar tashkil qiladi.

Psixologik omillar ham ayollar jinoyatchiligida muhim o‘rin tutadi. Ruhiy bosim, stress, oilaviy zo‘ravonlik yoki shaxsiy muammolar ayrim hollarda jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ayollar jinoyatchiligini oldini olishda huquqiy ta‘lim muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy ong va madaniyatga ega bo‘lgan shaxs o‘z huquq va majburiyatlarini yaxshi anglaydi hamda qonun talablariga rioya qiladi.

Ta‘lim muassasalari va mahallalarda huquqiy vazifalarni o‘rgatish orqali yoshlar va aholi, ayniqsa ayollar o‘rtasida huquqiy madaniyatni oshirish mumkin. Bu esa ularning turli huquqbuzarliklarni sodir qilmaslikka xizmat qiladi.

Bundan tashqari, huquqiy targ‘ibot ishlari, seminarlar, treninglar va davra suhbatlari orqali ham ayollar o‘rtasida huquqiy ongni oshirish mumkin. Eng asosiysi ularning bandligini ta‘minlash zarur. Mablag‘ yetarli bo‘lsa, o‘z ustida omma bilan birgalikda ishlaydigan bo‘lsa, demak u ayolda yetuk ma‘naviyat sekin-astalik bilan rivojlanaveradi. Bunday ishlarni qisqa, mazmunan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham mustahkamlab qo‘yilgan.

Bundan tashqari, ayollarda nevrozlar va psixopatiyalar darajasi ham ancha yuqori bo‘ladi. Bularning barchasi birgalikda onaning o‘z chaqalog‘ini o‘ldirishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ayolning boladan qutulish niyati uni qasddan o‘ldirish jinoyatiga aylanishiga imkoniyat yaratuvchi bir qancha sub'yektiv va obektiv omillar mavjud. Bular:

- nikohsiz bola tuqqani uchun atrofdagilarning qoralashidan qo‘rqish hamda uyalish;
- bolaning otasi, o‘z qarindoshlari yoki boshqa shaxslar onani o‘z chaqalog‘ini o‘ldirishga og‘dirishi;
- ota-onasining salbiy munosabatidan qo‘rqish;
- jinoiy homila tushirish bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning og‘dirishi;
- homiladorlikning oldini olish, homilani davolash muassasalarida tushirish imkoniyatiga doir maxsus tibbiy bilimlarning yo‘qligi;
- so‘qqabosh ona bolani tarbiyalashda moddiy va ma'naviy qiyinchiliklarga duch kelishini tushunish, homilador ayollar va so‘qqabosh onalarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatilishi haqida zarur huquqiy bilimlarning yo‘qligi kabi holatlar sabab bo‘lmoqda[5].

Ayollar jinoyatchiligi haqida so‘z ketganda huquqiy fanlar, ta‘lim va amaliyot integratsiyasining ahamiyatiga alohida to‘xtalib o‘tish joiz. Ayollar jinoyatchiligini o‘rganish va uning oldini olish jarayonida huquqiy fanlar, ta‘lim va amaliyot o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Huquqiy fanlar, xususan kriminologiya, jinoyat huquqi va boshqa sohalar jinoyatchilikning sabablarini ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Ta‘lim

muassasalari esa ushbu ilmiy bilimlarni yosh mutaxassislar ongiga singdiradi. Amaliyot esa ushbu bilimlarning real hayotda qo'llanilishini ta'minlaydi. Sud, prokuratura, ichki ishlar organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlarning ilmiy ishlari va tadqiqotlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Shu sababli ta'lim muassasalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ayollar jinoyatchiligini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shuningdek, jinoyatchi ayolning emotsional holati ular tomonidan sodir etiladigan jinoyatni subyektiv va obyektiv tomonidan erkak jinoyatchi tomonidan sodir etiladigan jinoyatlardan farqlash imkonini beradi. Ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan ayollarning atigi 22,8 foizining oilasi bor. Yangi tug'ilgan bolasini o'ldirgan jinoyatchilar orasida nikoh munosabatlarida bo'lgan ayollarning eng kam bor. Aytib o'tish kerakki, qamoq jazosiga hukm qilingan ayollarning ko'pchilik qismi (67,7%) bolali, har to'rtinchi ayol esa ikki yoki undan ko'p bolali. Ular orasida yolg'iz onalar ko'pchilikni tashkil etadi[2].

Xulosa o'rnida to'xtalib o'tish mumkinki, Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar o'rtasida jinoyatchilikni kamaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etishda ayollar jinoyatchiligining sabablarini chuqur o'rganish, profilaktika choralarini kuchaytirish hamda huquqiy madaniyatni oshirish maqsadga muvofiq.

Bunda huquqiy predmetlar, ta'limdagi tizim va amaliyotlar muhim rol o'ynaydi. Nazariy bilimlar va harakatning uyg'unlashuvi jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshiradi hamda jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -T. 2023.
2. D.G'ofurova Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning kriminalistik tavsifi // www.scientificprogress.uz – B.1170
3. Internet manbalar (Murojaat sanasi: 13.03.2026)
4. <https://qalampir.uz/uz/news/> (Murojaat sanasi: 13.03.2026)
5. <https://kun.uz/news/2019/08/07> // (Murojaat sanasi: 13.03.2026)